Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ZAMONAVIY QORAQALPOQ YOSHLAR POEZIYASIDA LIRIK “MEN” KONSEPSIYASI VA PSIXOLOGIK ZIDDIYATLAR

Isamatdinova Ulbosin
Berdoq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Adabiyotshunoslik (qoraqalpoq
adabiyoti) ixtisosligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy qoraqalpoq yoshlar poeziyasida lirik "men" konsepsiyasining evolyutsiyasi, shaxsiy kechinmalar va psixologik ziddiyatlarning badiiy talqini ilmiy-estetik jihatdan tadqiq etiladi. Qoraqalpoq she'riyatiga kirib kelgan yangi avlod ijodkorlarining tafakkur tarzi, an'anaviy qoliplardan voz kechib, insonning ichki olamiga yuzlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, lirik qahramonning tashqi dunyo bilan ziddiyati, yolg'izlik fenomeni va ruhiy tangliklarning poetik ifodalari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Qoraqalpoq poeziyasi, yoshlar ijodi, lirik "men", psixologik ziddiyat, ekzistensializm, badiiy tafakkur, poetik obraz.

Jahon adabiy jarayonida sodir bo'layotgan global integratsiya, axborotlashuv va shiddatli psixologik transformatsiyalar har bir milliy adabiyot qatori zamonaviy qoraqalpoq poeziyasiga ham o'zining ta'sirini o'tkazmoqda. Xususan, so'nggi yillarda qoraqalpoq she'riyatida shakllangan yosh ijodkorlar avlodi o'zining yangicha tafakkuri, estetik-falsafiy qarashlari va ifoda usullari bilan adabiy muhitning e'tiborini tortmoqda. V.G.Belinskiyning “Poeziya… sub’ektivlik saltanatidir, bu-ichki dunyodir, o’z ichida qoluvchi va tashqariga chiqmaydigan tashabbuslar dunyosidir. Bunda poeziya ichki dunyo elementida , sezuvchi va fikrlovchi xayol dorasida qoladi;bunda ruh tashqi reallikdan o’tib, o’z ichiga o’zi yashirinadigan va tashqi dunyoni o’ziga aks ettirgan ichki hayotining mislsiz jilo va jilvalarini poeziyaga hadya etadi.[1]

Mazkur davr poeziyasining eng boshqaruvchi va yetakchi xususiyatlaridan biri bu — lirik "men" tabiatining tubdan o'zgarishi, shaxsiy kechinmalarning badiiy talqini va psixologik ziddiyatlarning qabartirib ko'rsatilishidir. Ilgari an'anaviy qoraqalpoq lirikasi ko'pincha jamoatchilik dardi, milliy ruhiyat, tabiyot manzaralari yoki epik ko'lamdagi tasvirlarga tayanib kelgan bo'lsa, bugungi yoshlar ijodida e'tibor markazi keskin ravishda insonning ichki olamiga, uning ongsizlik qatlamlari va ruhiy tangliklariga ko'chdi. Shoir o'zini jamiyatning umumiy oqimidan bir oz chetga olib chiqib, o'zining "men"i bilan yuzma-yuz kelmoqda, shaxsiy yolg'izlik, tushkunlik va zamonaviy dunyodagi ekzistensial inqirozlarni hech qanday pafossiz, samimiy aks ettirmoqda. Quyida qoraqalpoq adabiyotidagi yosh ijodkor Ataǵulla Satbaevning **“Túsin”** she’ridan parchani tahlil qilamiz:

Pidayı bolıwım qıyın sen ushın -
Farxad bolıp taw
qopara almayman
Májnún bolıp shóldi etpeymen mákan

[1] Belinskiy G.Tanlangan asarlar. Toshkent. 1955.134-b.

Arzıysań bárine, arzıysań...
Biraq -
Romeo bolıp ta bere almayman jan.

Poetik parchada Sharq va G'arb adabiyotining klassik oshiq-ma'shuqlik simvollari — **Farhod**, **Majnun** va **Romeo** obrazlariga murojaat qilingan. An'anaviy poeziyada lirik qahramon o me'yordan ortiq pafos bilan o'zini shu qahramonlarga tenglashtirar yoki ulardan ham ustun qo'ygan holda "tog'ni talqon qilishga" tayyorligini bildirar edi. Biroq, ushbu misralarda zamonaviy lirik "men" **o'zining real imkoniyatlarini va ojizligini tan oladi**. U oshiqona afsonalar va ideallashtirilgan qoliplardan voz kechadi. Farhod kabi tog' qazish, Majnun kabi saxroga ketish yoki Romeo kabi jon berish — zamonaviy inson psixologiyasi va hayoti uchun g'ayrireal ekanligini anglaydi. Shoirning "Oktyabr" she'rida:

Kete almaysań -
jolıń beklewli
Sergizdanlıq saǵan etpegen nesip.
Hár báhárde umıtqanday gúllewdi
Daraqtar dártiń de baxıttan biynesip.

Misralarda **baxt va dard** qarama-qarshiligi (antitezasi) orqali ichki psixologik tanglik cho'qqiga chiqadi. Dard shunchalik ildiz otganki, u baxt hissidan mutlaq mosuvo. Lirik qahramon o'zining chorasizligini va taqdirga bo'ysunganligini tahlil qilar ekan, unda zamonaviy ekzistensializmga xos bo'lgan "hayotiy ma'nosizlik va tushkunlik" kayfiyati yaqqol seziladi.

Hozirgi yoshlar poeziyasida o'z orniga ega shoira Sahibjamal Sirgabaevaning she'rlari ham alohida tahlil qilish uchun yetarli darajada deb o'ylaymiz. Masalan uning "Hási ketpe" she'rida quyidagi satrlar uchraydi:

Mángilik joq mına aspan astında
Qábirińe qoyıp qaytar dostıń da
Heshkimge iyilmegen kerbaz basıń
Shirip keter qara jerdiń astında...

An'anaviy she'riyatda o'lim va faniylik motivlari ko me'yoran pand-nasihat yoki diniy-tasavvufiy kontekstda berilgan bo'lsa, zamonaviy yoshlar lirikasida u **haqiqat bilan yuzma-yuz kelish (reallikni ochiq tan olish)** sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu poetik parchada zamonaviy qoraqalpoq yoshlar poeziyasining ekzistensial-falsafiy doirasi yaqqol namoyon bo'ladi. 'Hesh kimge iyilmegen kerbaz bas' hamda 'shirip keter qara jerdiń astında' qatorlari o'rtasidagi ziddiyat inson kibri va o'lim sovuqqonligi o'rtasidagi abadiy to'qnashuvni ochib beradi. Lirik qahramonning faniylikni va mutlaq yolg'izlikni bunday realizm bilan e'tirof etishi yoshlar she'riyatida inson mavjudligi, uning o'tkinchiligi va vaqt qarshisidagi ojizligi chuqur psixologik tahlil qilinayotganidan dalolat beradi."

Bu esa zamonaviy qoraqalpoq poeziyasida lirik qahramonning nafaqat tashqi muhit kuzatuvchisi, balki o'z ichki dunyosidagi ziddiyatlarni tahlil qiluvchi faol va murakkab psixologik subyektga aylanganidan dalolat beradi. Adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, lirik "men" muallifning oddiy biografik nusxasi emas, balki muayyan davr ruhiyati, uning ziddiyatlari va fojialarini o'zida mujassam etuvchi estetik kategoriyadir. Hozirgi qoraqalpoq she'riyatida kuzatilayotgan shakliy va mazmuniy yangilanishlar shoirning "men"ini jamiyat ta'siridan chiqarib, uning ruhiy olamidagi kechinmalar, ekzistensial inqirozlar va yolg'izlik fenomenini ochib berishga xizmat qilmoqda.

Zamonaviy yoshlar poeziyasida kuzatilayotgan ruhiy tushkunlik, begonalashuv va o'zini o'zi anglash jarayonlari zamonaviy inson psixologiyasidagi global transformatsiyalar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu holat lirik qahramonning ichki ziddiyatlarini keskin kuchaytirdi. Oldingi avlod qoraqalpoq lirikasi ko'pincha el-yurt, tabiat motivlari yoki jamoatchilik ruhi bilan yashagan bo'lsa, bugungi yoshlar poeziyasida e'tibor markaziga insonning o'zi, uning ongsizligi, ichki tushkunliklari va yolg'izlanishi chiqmoqda. Hozirgi qoraqalpoq yoshlarining she'rlarida hayotning ma'nosi, zamonaviy dunyodagi o'rni, o'zini o'zi topa olmaslik yoki jamiyat shartlariga moslasha olmaslik kabi ichki psixologik ziddiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ахметов.С. Султанов. Қ. Әдебияттаныў. Нөкис. “Қарақалпақстан”, 1987
2. Dosımbetova A. Ádebiyatta kórkemlew quralları. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2017 3. Жәримбетов Қ. Әдебияттаныўдан сабақлар. Нөкис, «Қарақалпақстан», 2012 4. Járimbetov Q., Genjemuratov B. Ádebiyat teoriyası. Tashkent, «Sano-standart», 2018 5.Orazımbetov Q. Qosıq teoriyası. Nókis, «Qaraqalpaqstan», 2020 6.Генжемуратов Б. Ҳәзиргиқарақалпақ ҳаял-қызлар поэзиясында – суггестив лирика. «Қарақалпақстан жаслары», 2001, 24-март